QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.06.2020.FM.70.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

HUSENOV BEHZOD ERKIN O‘G‘LI

$A(z)$-ANALITIK FUNKSIYALAR UCHUN KARLEMAN FORMULASI

01.01.01 – Matematik analiz

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Qarshi – 2024

UDK: 517.54

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.06.2020.FM.70.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

HUSENOV BEHZOD ERKIN O‘G‘LI

$A(z)$-ANALITIK FUNKSIYALAR UCHUN KARLEMAN FORMULASI

01.01.01 – Matematik analiz

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Qarshi – 2024

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2021.1.PhD/FM255 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (http://ik-fizmat.nuu.uz/) va «ZiyoNet» ta'lim axborot tarmog'ida (http://www.ziyonet.uz/) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Jabborov Nasridin Mirzoodilovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Yaxshiboyev Maxmadiyor Umirovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Bozorov Jo'rabek Tog'aymurotovich fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yetakchi tashkilot:	Nukus davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.06.2020.FM.70.04 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «24» may soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 180103, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 225 34 13, faks: (+998 75) 221 00 56, e-mail: qarshidu@umail.uz). Qarshi davlat universiteti 2-binosi, 202-xona.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (216 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180103, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 225 34 13, faks: (+998 75) 221 00 56, e-mail: qarshidu@umail.uz). Qarshi davlat universiteti 2-binosi, 202-xona.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «11» may kuni tarqatildi.
(2024-yil «11» may dagi 1 raqamli reestr bayonnomasi).

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

B.A.Shoimqulov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
f.-m.f.d., professor

Sh.D.Nodirov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
f.-m.f.f.d. (PhD)

A.A.Imomov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash huzuridagi
Ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d.(DSc.), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda olib borilayotgan kompleks analizdagi aksariyat izlanishlar analitik funksiyalarning chegaraviy xossalarini va integral ifodasini tadqiq qilishga olib kelinadi. Analitik funksiyalarning chegaraviy xossalari nazariyasi matematik analizning, shuningdek matematikaning boshqa sohalariga yaqindan bog‘liq. Bu nazariya chegaraviy masalalar orqali matematikaning turli sohalari bilan uzviy bog‘langan. Analitik funksiyalarning chegaraviy xossalari nazariyasini qurishda integral ifodalar muhim vosita hisoblanadi. Ular ayniqsa soha ichida golomorf funksiyani uning soha chegarasidagi yoki chegaraning qismidagi qiymati orqali tiklash va golomorf davom ettirish masalalarida keng qo‘llaniladi. Shu sababdan, analitik funksiyalarning chegaraviy xossalari va integral ifodalarini tadqiq etish dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bu yo‘nalishdagi amaliy masalalarga birinchi bo‘lib V.A.Fok va F.M.Kuni fizik olimlar nazariy yadro fizikasida dispersion muhitlarga tadbiq etishgan. Shuningdek, ushbu yo‘nalishdagi natijalardan mexanikadagi ko‘p fazali muhitlarda ba’zi bosim formulalarini topishda foydalanilmoqda.

Hozirgi vaqtda dunyoda $A(z)$-analitik funksiyalarning chegaraviy xossalari va integral ifodalari nazariyasini o‘rganishga hamda ularning tatbiqlariga keltiriladigan masalalarga qiziqish ortdi. Mazkur nazariya usullarining kvazikonform akslantirishlar va tomografiya masalalariga, kompleks dinamik sistemalar, matematik fizika hamda fanning boshqa sohalaridagi tatbiqlarining ko‘pligi bilan bog‘liq. Shu bilan birga, yangi chegaraviy xossalarini va klassik teoremalarning analogini topish, mavjud sinflarni va integral ifodalarni umumlashtirish, ularning tegishli sohalarga tatbiq qilish maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi. Bunga misol qilib Rossiya FAning Sibir bo‘limi Matematika instituti olimlari E.V.Arbuzov, A.A.Buxgeym va S.G.Kazansevlarning ilmiy ishlarida A-analitik funksiyalar (*const* holi) yordamida tomografiya masalasining yechimini berishgan. Shuningdek, X.X.Imomnazarov va N.M.Jabborovlar tomonidan A-analitik funksiyalarni neft-gaz masalalariga tatbiq etishgan.

Mamlakatimizda ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan fundamental fanlarga, shular qatorida kompleks o‘zgaruvchili funksiyalar nazariyasiga alohida e’tibor qaratilgan. “Algebra va funksional analiz, differensial tenglama va matematik fizika tenglamalari, dinamik tizimlar nazariyasi, geometriya va topologiya, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika, amaliy matematika va matematik modellashtirish” fanlarining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish asosiy vazifalar va faoliyat yo‘nalishlari etib belgilandi[1]. $A(z)$-analitik funksiyalarning chegaraviy xossalarini tadqiq qilish va ularning integral ifodalari kompleks analizning ko‘plab masalalarini yechishda va uni tatbiq etishda, shuningdek ushbu qarorni amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2017-yil 18-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 292-sonli qarori.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-2789-sonli Qarori, 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4387-son “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni, 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga bogʻliqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Matematika, mexanika va informatika” toʻrtinchi ustuvor yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Kompleks analiz usullarini fanning boshqa boʻlimlariga tatbiqlarining kengayishi munosabati bilan hozirda u klassik usulga aylangan, jumladan, analitik funksiyalarning aniqlanish sohasi chegarasiga yaqinlashgandagi xossalarini oʻrganish va analitik funksiyalarni soha ichida chegaraning qismidagi qiymatlari yordamida tiklash kabi masalalar paydo boʻldi.

XIX asrning ikkinchi yarmida yakkalangan maxsus nuqtalar atrofida analitik funksiyalar xossalari haqidagi Pikar va Soxotskiy teoremalari orqali analitik funksiyalar chegaraviy masalalarni tadqiq qilish boshlandi. Fatu natijalaridan soʻng uning teoremalarini kattaroq sinflarga kengaytirgan V.V.Golubev, N.N.Luzin, I.I.Privalovlarning klassik teoremalari yuzaga keldi. Keyinchalik, bu nazariyaning istiqboli A.I.Markushevich va uning shogirdlari N.A.Davidov, G.T.Tumarkin hamda boshqalarning ilmiy ishlari bilan davom ettirildi. Chegaraviy xossalar nazariyasining keyingi rivojlanishi funksional analiz bilan bogʻlandi, uning usullari hozirda ushbu nazariyada keng qoʻllanilmoqda.

Chegaraviy xossalar avvalo berilgan analitik funksiyaning aniqlanish sohasi chegarasining geometriyasi bilan bogʻliq boʻlganligi sababli, ushbu nazariyada asosan quyidagi uchta: chegara qiymatlarning mavjudligi , chegaraviy ifodalash va yagonalik masalalari qaraladi. Mavjudlik masalasini yechishdagi dastlabki natijalar Fatuning ishlarida tadqiq etilgan: Ushbu natijalarda aytilishicha, agar funksiya birlik doirada chegaralangan boʻlsa, u holda birlik aylananing deyarli hamma yerida funksiyaning radial va burchak qiymatlari mavjud boʻladi. N.N.Luzin Fatu teoremasining ma’lum ma’noda yaxshilanmasligini koʻrsatdi. Fatu natijalaridan soʻng, asosiy masala uning teoremalarini kattaroq sinflarda oʻrganish masalasiga olib keladi. Birlik doiradagi analitik funksiyalar uchun Nevanlinna sinfi Xardi sinflarini va chegaralangan funksiyalar sinflarini oʻz ichiga oladi.

Yagonalik toʻplami masalasidagi dastlabki natijalar 1916-yilda aka-uka F.Riss va M.Risslar tomonidan olingan: agar chegaralangan funksiyaning doira chegarasining musbat Lebeg oʻlchovli qismida radial chegaraviy qiymati nolga teng bo‘lsa, u holda funksiyaning doira ichidagi qiymati aynan nolga teng bo‘ladi. Meromorf funksiyalar uchun umumiy chegaraviy yagonalik teoremalari 1925-yilda N.N.Luzin va I.I.Privalov tomonidan isbotlangan.

Golomorf funksiyani integral ifodasi kompleks o‘zgaruvchili funksiyalar klassik nazariyasining amaliy masalalaridan biri hisoblanadi. Bu integral ifoda soha chegarasidagi qiymatlar bo‘yicha soha ichida funksiyani tiklash masalasini yechadi. Ushbu klassik masala qatorida quyidagi masalani ham qarash mumkin: golomorf funksiyani soha ihida uning sohaning butun chegarasida emas, balki chegaraning biror qismidagi qiymatlari orqali tiklash. Albatta, qaralayotgan chegaraviy qism to‘plam golomorf funksiyalar sinfi uchun yagonalik to‘plami bo‘lishi kerak.

Bu yo‘nalishdagi dastlabki natija 1926-yilda maxsus ko‘rinishdagi soha uchun T.Karleman tomonidan olingan. Keyinchalik, uning bu g‘oyasi G.M.Goluzin va V.I.Krilov ishlarida rivojlantirilgan. Ular bir bog‘lamli sohalar uchun Koshining integral formulasida chegaraning bir qismida “so‘ndiruvchi” funksiya qurish usulini taklif etgan.

Kompleks analizda, kompleks dinamik sistemalar nazariyasida, shuningdek tomografiya masalalarida olib borilgan ko‘plab nazariy va amaliy tadqiqotlar, $A(z)$-analitik funksiyalar xossalarini chuqurroq o‘rganishni talab qiladi.

O‘zbekistonda 2010-yildan boshlab O‘zbekiston Milliy universiteti Matematik analiz kafedrasida akademik A.Sadullaev rahbarligida uning shogirdlari N.M.Jabborov, T.U.Otaboyev, Sh.Y.Xursanov va boshqalar tomonidan $A(z)$-analitik funksiyalarning funksional xossalari o‘rganila boshlandi va natijada Koshi yadrosining analogi, Shvarts va Puasson formulalari, Riss tipidagi ifoda uchun $A(z)$-garmonik va $A(z)$-subgarmonik funksiyalarning xossalari isbotlandi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 2018-2019 yillarga mo‘ljallangan MRU-OT-9/2017-raqamli “Ko‘p o‘lchovli kompleks analiz” (2018-2019) mavzularidagi ilmiy tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi $A(z)$-analitik funksiyalar uchun analitik funksiyalarning chegaraviy xossalarini va Xardi sinfiga tegishli $A(z)$-analitik funksiyalar uchun Karleman formulasini isbotlash kabi masalalarni o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

$A(z)$-lemniskatada $A(z)$-analitik funksiyalar uchun Xardi sinfini ta’rifini berish va ushbu funksiyalar sinfining funksional xossalarini isbotlash;

$A(z)$-analitik funksiyalar va $A(z)$-garmonik funksiyalar hamda Xardi sinfi orasida bog‘liqlikni kiritish;

$A(z)$-lemniskatada chegaralangan $A(z)$-analitik funksiyalar uchun chegaraviy qiymatlari mavjudligini tekshirish;

$A(z)$-analitik funksiyalar uchun Nevalinna-Ostrovskiy sinfini kiritish va bu sinfdagi funksiyalarning xossalarini isbotlash;

$A(z)$-garmonik majoranta tushunchasini kiritish;

$A(z)$-analitik funksiyalar uchun Nevalinna sinfidagi funksiyalar chegaraviy qiymatlari mavjudlik shartini tekshirish;

$A(z)$-analitik funksiyalar uchun chegaraviy yagonalik teoremasini isbotlash;

$A(z)$-analitik funksiyalar uchun so‘ndiruvchi funksiyani qurish;

Xardi sinfiga tegishli $A(z)$-analitik funksiyalar uchun Karleman formulasi isbotlash.

Tadqiqotning obyekti $A(z)$-analitik funksiyalarning integral ifodasi va ushbu funksiyalarning aniqlanish sohasi chegarasida o‘zgarishidan iborat.

Tadqiqotning predmetini $A(z)$-analitik va $A(z)$-garmonik funksiyalarning chegaraviy xossalari, Koshi integral formulasi, Puasson formulasi, Karleman formulasi tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida funksiyalar nazariyasi, analitik funksiyalar nazariyasi, klassik potensiallar nazariyasi, kvazikonform akslantirishlar nazariyasi va $A(z)$-analitik funksiyalar nazariyasi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

$A(z)$-analitik funksiyalar uchun Xardi sinfi kiritilgan va bu sinfga tegishli funksiyalarning funksional xossalari isbotlangan, shuningdek, Xardi sinfidagi $A(z)$-garmonik funksiyalar uchun Dirixle masalasining yechimi Puasson formulasi yordamida berilgan;

$A(z)$-analitik funksiyalar sinfida radial va burchakli limit tushunchasi kiritilgan hamda bular yordamida $A(z)$-analitik funksiyalar uchun Fatu teoremasi isbotlangan, bu teoremadan foydalanib Xardi sinfiga tegishli $A(z)$-analitik funksiyalar uchun Koshi formulasi keltirib chiqarilgan;

$A(z)$-analitik funksiyalar uchun Nevanlinna-Ostrovskiy sinfi va $A(z)$-garmonik majoranta tushunchasi kiritilgan. Ushbu sinfga tegishli funksiyalarni Blyashke ko‘paytmasiga yoyilgan va ularning chegaraviy qiymatlari mavjudligi isbotlangan;

Chegaralangan yoki Xardi sinfiga tegishli $A(z)$-analitik funksiyalar uchun chegaraviy yagonalik teoremalari isbotlangan. Shuningdek, chegaraviy to‘plamning $A(z)$-garmonik o‘lchovi kiritilgan, $A(z)$-garmonik va $A(z)$-analitik funksiyalarni bahosi hamda $A(z)$-analitik funksiyalar ketma-ketligini tekis yaqinlashishi tekshirilgan;

$A(z)$-garmonik o‘lchov orqali chegaralangan $A(z)$-analitik funksiyalar uchun so‘ndiruvchi funksiya qurilgan va ushbu funksiya yordamida Xardi sinfiga tegishli $A(z)$-analitik funksiyalar uchun Karleman formulasi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi dissertatsiyada isbotlangan teoremalarda, $A(z)$-analitik funksiyalar uchun Xardi sinfida topilgan Karleman formulasining tatbiqi elliptik tipdagi chegaraviy masalalarni hamda matematik fizika tenglamalarning boshqa bo‘limlaridagi masalalarni yechishda qo‘llanishi mumkin. Bundan tashqari, olingan natijalar va qo‘llanilgan usullar oliy o‘quv yurtlarida magistratura talabalari hamda doktorantlar uchun o‘quv kursi sifatida o‘qitilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi matematik fizika usullarini, funksiyalar nazariyasi, klassik potensiallar nazariyasi va bir o‘zgaruvchili kompleks funksiyalar nazariyasi usullaridan tatbiq etilishi va qat’iy matematik dalillardan foydalanilishi bilan izohlanadi. Undan tashqari, dissertatsiyadagi natijalar nufuzli impakt-faktorli ilmiy jurnallarda chop etilgan, xususan xalqaro va respublika miqyosidagi konferensiyalarda, ilmiy seminarlarda muhokamadan o‘tgan. Bularning barchasi dissertatsiya natijalarining ishonchliligini isbotlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, $A(z)$-analitik va $A(z)$-garmonik funksiyalarni aniq baholanishi, $A(z)$-analitik funksiyalar uchun yagonalik to‘plami mavjudligini isbotlash va $A(z)$-analitik funksiyalar uchun Karleman formulasini topish kabi olingan natijalardan foydalanishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Dissertatsiya natijalarning amaliy ahamiyati shundan iboratki, kompyuter tomografiyasida va suyuqliklar ishqalanish koeffisiyentini hisoblashda, mexanik muammolar va matematik fizikaning chegarasida berilgan qiymatga ko‘ra soha ichkarisidagi qiymatlarni tiklashda $A(z)$-analitik funksiyalar uchun Xardi sinfida Koshining integral formulasi qo‘llanilish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dissertatsiya tadqiqoti jarayonida olingan ilmiy natijalar quyidagi yo‘nalishlarda amaliyotga joriy qilingan:

Chegaralangan yoki Xardi sinfiga tegishli $A(z)$-analitik funksiyalar uchun chegaraviy yagonalik teoremalaridan 2018-2020 yillarda OT-Atex-2018-340-“Ikki tezlikli muhit dinamikasining amaliy geofizik masalalarini nazariy va sonli tadqiq etish” amaliy tadqiqotlari ilmiy loyihasida foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2023-yil 20-sentyabrdagi 03/3556-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi yopishqoq-elastik tenglamalar sistemasida diagonal matritsali yadroni aniqlash masalasining yagonaligi va mavjudligini o‘rganish imkonini bergan.

$A(z)$-analitik funksiyalar uchun Fatu teoremasi, $A(z)$-analitik funksiyalarning chegaraviy qiymatlari mavjudligi tasdig‘idan 2018-2019 yillarda bajarilgan MRU-OT-9/2017 “Ko‘p o‘lchovli kompleks analiz” mavzusidagi fundamental loyihasida foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy universiteti 2023-yil 26-sentyabrdagi 04/11-6047-sonli ma’lumotnomasi). Natijada $A(z)$-analitik funksiyalar uchun Xardi sinfida Koshi formulasini keltirib chiqarish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida, jami 5 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilindi.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan, ulardan 6 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestasiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari (PhD) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, jumladan, 1 tasi xorijiy va 5 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 83 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismda dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Dastlabki ma’lumotlar”** deb ataladi. Ushbu bobda doktorlik dissertatsiya ishining asosiy natijalarini bayon qilishda va isbotlashda foydalanilgan muhim tushunchalar, tasdiqlar va teoremalar keltirilgan. Bundan tashqari, $A(z)$-garmonik funksiyalarning va $A(z)$-subgarmonik funksiyalar xossalariga bag‘ishlangan ayrim maqolalarning qiyosiy tahlili keltirilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi, **“$A(z)$-analitik funksiyalarning chegaraviy qiymatlarini mavjudligi”** deb nomlanadi. Bu bobda analitik va garmonik funksiyalar nazariyasi klassik analizning eng nozik va mantiqiy bo‘limlarini ifodalashdir. $A(z)$-analitik funksiyalar uchun Xardi va Nevanlinna sinflarining chegaraviy xossalarini o‘rganishda funksiyaning lemniskatada chegaraviy qiymatlarining mavjudligi muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, bu bobda $A(z)$-analitik funksiyalar uchun Nevanlinna-Ostrovskiy sinfi ham kiritilgan va bu sinfning xossalari tadqiq qilingan. Asosiy natija sifatida chegaralangan va H_A^1 Xardi sinfidagi funksiya uchun lemniskataning chegaraviy qiymatlari mavjudligini ko‘rsatishda $A(z)$-analitik funksiyalar uchun Fatu teoremasini isbotlangan.

Kvazikonform akslantirishlar nazariyasi bilan bog‘liq bo‘lgan ushbu

$$\bar{D}_A f(z) := \frac{\partial f(z)}{\partial \bar{z}} - A(z)\frac{\partial f(z)}{\partial z} = 0 \tag{1}$$

Beltrami tenglamasining yechimini qaraylik. Bu yerda, $A(z)$ funksiya o‘lchovli va qaralayotgan $D \subset \mathbb{C}$ sohaning deyarli barcha nuqtalarida $|A(z)| \le C < 1$ shartni qanoatlantiradi. Adabiyotlarda (1) tenglamaning yechimi $A(z)$-*analitik funksiya* deb ataladi.

Aytaylik, $A(z)$-antianalitik funksiya, $\frac{\partial A}{\partial z} = 0$, $D \subset \mathbb{C}$ sohada $|A(z)| \le C < 1$, $\forall z \in D$ o‘rinli bo‘lsin. Shunday qilib, antianalitik funksiyalar cheksiz silliq bo‘lganligidan $O_A(D) \subset C^\infty(D)$ ekanligi kelib chiqadi.

1-teorema (Koshi teoremasining analogi). *Faraz qilaylik, $D \subset \mathbb{C}$ soha bo‘lakli silliq chegaradan iborat bo‘lsin. Agar $f \in O_A(D) \cap C(\bar{D})$ bo‘lsa, u holda $\int\limits_{\partial D} f(z)\left(dz + A(z)d\bar{z}\right) = 0$ bo‘ladi.*

Aytaylik, $D \subset \mathbb{C}$ qavariq soha bo‘lsin. $\psi(z,\xi) = z - \xi + \overline{\int\limits_{\gamma(\xi,z)} \bar{A}(\tau)d\tau} \in O_A(D)$ funksiya ichki akslantirishni amalga oshiradi, bu yerda $\gamma(\xi,z) - \xi, z \in D$ nuqtalarni tutashtiruvchi silliq egri chiziq. Xususan, $L(a,r) = \{z \in D : |\psi(a,z)| < r\}$

to‘plam D da ochiq to‘plamni ifodalaydi, bu yerda $\gamma(a,z)-a,z\in D$ nuqtalarni tutashtiruvchi silliq chiziq. Yetarlicha kichik $r>0$ uchun bu to‘plam D da kompakt yotadi va nuqtani o‘z ichiga oladi. Bu to‘plamni markazi a bo‘lgan $A(z)$-*lemniskata* deyiladi va $L(a,r)$ ko‘rinishda belgilanadi.

2-teorema (Koshi formulasining analogi). *Faraz qilaylik,* $D\subset\mathbb{C}-$*qavariq soha va* $G\subset D-\partial G$ *chegarasi bo‘lakli silliq soha bo‘lsin. U holda ixtiyoriy* $f\in O_A(D)\cap C(\bar{D})$ *funksiya uchun quyidagi formula o‘rinli*

$$f(z)=\int_{\partial G}\frac{1}{\xi-z+\int\limits_{\gamma(z,\xi)}\bar{A}(\tau)d\tau}f(\xi)\big(d\xi+A(\xi)d\bar{\xi}\big),\ \ z\in G.$$

3-teorema. *Faraz qilaylik,* $f\in O_A(D)$ *haqiqiy qismi* $u=\operatorname{Re}f$ *funksiya* D *sohada quyidagi tenglamani qanoatlantirsin:*

$$\Delta_A u:=\frac{\partial}{\partial z}\left[\frac{1}{1-|A|^2}\left[(1+|A|^2)\frac{\partial u}{\partial\bar{z}}-2A\frac{\partial u}{\partial z}\right]\right]+\frac{\partial}{\partial\bar{z}}\left[\frac{1}{1-|A|^2}\left[(1+|A|^2)\frac{\partial u}{\partial z}-2\bar{A}\frac{\partial u}{\partial\bar{z}}\right]\right]=0.\quad(2)$$

Aksincha, agar $D-$*bir bog‘lamli sohada,* $u\in C^2(D)$, $u:D\to\mathbb{R}$, *ikki marta differensiallanuvchi va (2) tenglamani qanoatlantiruvchi funksiya bo‘lsa, u holda shunday* $f\in O_A(D)$ *funksiya mavjudki, uning haqiqiy qismi* $u=\operatorname{Re}f$ *bo‘ladi.*

3-teoremaga asoslanib $A(z)$-*garmonik* funksiyani quyidagicha ta’riflash mumkin:

1-ta’rif. *Aytaylik,* $D\subset\mathbb{C}-$*bir bog‘lamli soha berilgan bo‘lsin. Bu sohada ikki marta differensiallanuvchi* $u\in C^2(D)$, $u:D\to\mathbb{R}$, *funksiya* D *ning barcha nuqtalarida (2) tenglamani qanoatlantirsa, u holda* $u(z)$ D *sohada* $A(z)$*-garmonik funksiya deyiladi.*

D sohada $A(z)$-garmonik funksiyalar sinfi $h_A(D)$ kabi belgilanadi.

Shuningdek, $\Delta_A u$ operator ham klassik holdagi Δu operator kabi $A(z)$-garmonik funksiyalar nazariyasida muhim rol o‘ynaydi. 3-teoremadan kelib chiqadiki, D sohada $A(z)$-analitik funksiya $f=u+iv$ ning haqiqiy va mavhum qismlari $A(z)$-garmonik funksiya bo‘lishi kelib chiqadi. v funksiya u funksiyaga *qo‘shma garmonik funksiya* deyiladi.

Endi $A(z)$-analitik funksiyalar uchun Xardi sinfini kiritamiz. Aytaylik, $L(a,r)\subset\subset D$ bo‘lsin.

2-ta’rif. $A(z)$*-analitik funksiyalar uchun* H_A^p, $p>0$, *Xardi sinfi deb, shunday* $f(z)\in O_A(L(a,r))$ *funksiyalar to‘plamiga aytiladiki, bu funksiyalarning o‘rta qiymati*

$$\frac{1}{2\pi\rho}\int\limits_{|\psi(a,z)|=\rho}|f(z)|^p\,|dz+A(z)d\bar{z}|\qquad(4)$$

$\rho<r$ *uchun tekis chegaralangan, ya’ni*

$$\sup_{\rho<r}\left\{\frac{1}{2\pi\rho}\int\limits_{|\psi(a,z)|=\rho}|f(z)|^p\left|dz+A(z)d\overline{z}\right|\right\}<\infty$$

munosabat o'rinli bo'ladi.

4-teorema. *Faraz qilaylik,* $u(z)\in h_A^p\left(L(a,r)\right)$, $p\geq 1$ *Xardi sinfiga tegishli bo'lsin, ya'ni o'rta qiymat*

$$\int\limits_{|\psi(a,z)|=\rho}|u(z)|^p\left|dz+A(z)d\overline{z}\right|$$

$\rho<r$ *da tekis chegaralangan bo'lsin. U holda shunday* $\omega(\zeta)\in L_A^p\left(\partial L(a,r)\right)$ *funksiya mavjud bo'ladi, unda*

$$u(z)=\frac{1}{2\pi r}\int\limits_{|\psi(a,\zeta)|=r}P(z,\zeta)\omega(\zeta)\left|d\zeta+A(\zeta)d\overline{\zeta}\right|.$$

Endi $\zeta\in\partial L(a,r)$ da radial $f^*(\zeta)$ va burchakli $f_{\sphericalangle}^*(\zeta)$ limitlarni aniqlaymiz. $U=\{|w|<1\}\subset\mathbb{C}_w$ uchun $\tau_\zeta=\{w=t\zeta\}$, $0\leq t\leq 1$, $\zeta\in\partial U$ radius bo'yicha limit $\varphi(w)$ funksiya $\varphi^*(\zeta)=\lim\limits_{w\to\zeta,\ w\in\tau_\zeta}\varphi(w)$ radial limit deyiladi, ζ, $\zeta\in\sphericalangle$ nuqtalardan chiquvchi $\sphericalangle\subset U$ burchak bo'yicha limit $\varphi_{\sphericalangle}^*(\zeta)=\lim\limits_{w\to\zeta,\ w\in\sphericalangle}\varphi(w)$ burchakli limit deyiladi. $L(a,r)$ lemniskata haqiqiy analitik chegara bilan bir bog'lamli soha hosil qiladi, u holda Riman teoremasiga ko'ra $\chi(z):U\to L(a,r)$ konform akslantirish mavjud bo'ladi, bu yuqoridagi akslantirish $\overline{U}$ yopig'ining biror atrofida konform bo'ladi. χ chegaraviy $\lambda\in\partial U$ nuqtani $\zeta\in\partial L(a,r)$ chegaraviy nuqtaga akslantiradi. U holda $\gamma_\zeta=\chi(\tau_\lambda)$ egri chiziq shunday xossaga egaki, bu chiziq a, ζ nuqtalarni birlashtiradi va $\partial L(a,\rho)=\{|\psi(a,z)|=\rho\}$, barcha darajadagi chiziqlarga perpendikulyar, bunda $0<\rho\leq r.$ $A(z)-$analitik funksiyalar nazariyasida γ_ζ egri chiziq radial yo'nalish sifatida rol o'ynaydi, $\chi(\sphericalangle)$ burchakning obrazi $\zeta\in\partial L(a,r)$ nuqtada burchakli to'plam sifatida rol o'ynaydi. Bu egri chiziqli burchakni $\sphericalangle=\sphericalangle_\zeta$ kabi belgilaymiz. $f(z)$ funksiyaning $\zeta\in\partial L(a,r)$ nuqtadagi $\lim\limits_{z\to\zeta,\ z\in\gamma_\zeta}f(z)=f^*(\zeta)$ radial limit, $f_{\sphericalangle}^*(\zeta)=\lim\limits_{z\to\zeta,\ z\in\sphericalangle_\zeta}f(z)-$ burchakli limit $\lim\limits_{z\to\zeta,\ z\in\gamma_\zeta}f(z)=f^*(\zeta)$ deyiladi.

$A(z)$-analitik funksiyalar uchun Fatu teoremasi yordamida $f^*(\zeta)$ funksiyaning chegaraviy qiymati mavjudligini ko'rsatamiz.

5-teorema. *Aytaylik,* $f(z)\in O_A\left(L(a,r)\right)$ *bo'lsin. Agar* $f(z)$ *funksiya* $L(a,r)$ *lemniskatada chegaralangan bo'lsa, u holda* $\partial L(a,r)$ *chegaradagi barcha* ζ

nuqtalar uchun $f^*(\zeta)=\lim\limits_{z\to\zeta} f(z)$ *radial limit mavjud bo‘ladi. Ushbu limit mavjud bo‘lmaydigan chegaraviy nuqtalarning o‘lchovi nolga teng bo‘ladi.*

1-natija. *Aytaylik,* $u(z)\in h_A\left(L\left(a,r\right)\right)$. *Agar* $u(z)$ *funksiya* $L(a,r)$ *lemniskatada chegaralangan bo‘lsa, u holda* $u\left(\zeta\right)=\lim\limits_{z\to\zeta\in\partial L\left(a,r\right)} u(z)$ *radial limit mavjud bo‘ladi. Ushbu limit mavjud bo‘lmaydigan chegaraviy nuqtalarning o‘lchovi nolga teng bo‘ladi.*

Ko‘rinadiki, agar $f^*_{\sphericalangle}\left(\zeta\right)$ burchakli limit mavjud bo‘lsa, u holda $f^*\left(\zeta\right)=f^*_{\sphericalangle}\left(\zeta\right)$ radial limit mavjud bo‘ladi.

6-teorema. *Agar* $f(z)\in H^1_A\left(L\left(a,r\right)\right)$ *bo‘lsa, u holda deyarli barcha* $\zeta\in\partial L(a,r)$ *nuqtalarda*

$$f^*\left(\zeta\right)=\lim_{z\to\zeta,\, z\in\sphericalangle} f(z)$$

burchakli limit mavjud va chekli bo‘ladi.

2-natija. *Aytaylik,* $f(z)\in O_A\left(L\left(a,r\right)\right)$ *bo‘lsin. Agar ushbu funksiya* $L\left(a,r\right)$ *lemniskatada chegaralangan bo‘lsa, u holda* $\partial L\left(a,r\right)$ *chegaraning deyarli barcha nuqtalarida* $f^*_{\sphericalangle}\left(\zeta\right)$ *burchakli limit qiymat mavjud bo‘ladi.*

Ma’lumki, agar $f(z)\in H^1_A\left(L\left(a,r\right)\right)$ bo‘lsa, u holda $f^*\left(\zeta\right)\in L^1_A\left(\partial L\left(a,r\right)\right)$ bo‘ladi. $\rho\to r$ bo‘lganda

$$\int\limits_{|\psi(a,z)|=\rho} f(z)\left|dz+A(z)d\overline{z}\right|\to\int\limits_{|\psi(a,z)|=r} f(z)\left|dz+A(z)d\overline{z}\right| \tag{5}$$

va

$$\int\limits_{|\psi(a,z)|=\rho}\left|f(z)-f^*\left(\zeta\right)\right|\left|dz+A(z)d\overline{z}\right|\to 0. \tag{6}$$

(2) Koshi formulasidan $L\left(a,r\right)$ lemniskata uchun qarasak,

$$f(z)=\frac{1}{2\pi i}\int\limits_{|\psi(a,\xi)|=\rho} f\left(\xi\right)K\left(\xi,z\right)\left(d\xi+A\left(\xi\right)d\overline{\xi}\right)$$

o‘rinli bo‘ladi.

$z\in L\left(a,r\right)$ nuqta fiksirlanganda $\rho\to r$ bo‘lsa, bu formula asosida va 6-teoremadan quyidagini hosil qilamiz:

$$f(z)=\frac{1}{2\pi i}\int\limits_{|\psi(a,\zeta)|=r} f^*\left(\zeta\right)K\left(\zeta,z\right)\left(d\zeta+A\left(\zeta\right)d\overline{\zeta}\right). \tag{7}$$

(7) H_A^1 dagi funksiyalar uchun Koshi formulasini ifodalaydi.

Yana bir $A(z)$-analitik funksiyalar uchun Xardi sinfiga yaqin bo‘lgan funksiyalar sinfini kiritamiz.

3-ta’rif. *Aytaylik,* $f(z)\in O_A\left(L\left(a,r\right)\right)$ *bo‘lsin. Ushbu funksiya* N_A *sinfga tegishli deyiladi, agar uning o‘rta qiymati*

$$\frac{1}{2\pi\rho}\int\limits_{|\psi(a,z)|=\rho}\ln^{+}\left|f(z)\right|\left|dz+A(z)d\overline{z}\right| \tag{8}$$

tekis chegaralangan bo‘lsa, ya’ni quyidagi munosabat o‘rinli bo‘lsa:

$$\sup_{\rho<r}\left\{\frac{1}{2\pi\rho}\int\limits_{|\psi(a,z)|=\rho}\ln^{+}\left|f(z)\right|\left|dz+A(z)d\overline{z}\right|\right\}<+\infty.$$

$v(z)\in sh_A\left(L\left(a,r\right)\right)$ uchun $u(z)\in h_A\left(L\left(a,r\right)\right)$ funksiya $L\left(a,r\right)$ lemniskatada $A(z)$-garmonik bo‘lib, agar $v(z)\le u(z),\ \forall z\in L\left(a,r\right)$ bo‘lsa, u holda $A(z)$-*garmonik majoranta* deyiladi. Ta’kidlaymizki, agar $v(z)\in sh_A\left(D\right)$ va $L\left(a,r\right)\subset\subset D$ bo‘lsa, u holda $\omega(z)\in h_A\left(L\left(a,r\right)\right),\quad \omega(z)\,|_{\partial L(a,r)}=v(z)\,||_{\partial L(a,r)}$ Dirixle masalasining yechimi $v(z),\ \omega(z)\ge v(z),\ \forall z\in L\left(a,r\right)$ funksiyaning $A(z)$-garmonik majorantasi bo‘ladi.

7-teorema. *Aytaylik,* $v(z)\in sh_A\left(L\left(a,r\right)\right)$ *bo‘lsin. Ushbu funksiya uchun* $u(z)\in h_A\left(L\left(a,r\right)\right),\ u(z)\ge v(z)$ *garmonik majoranta bo‘lishi zarur va yetarli, agar* $\int\limits_{\partial L(a,\rho)} v(z)\left|dz+A(z)d\overline{z}\right|$ *integrallar oilasi tekis chegaralangan bo‘lsa, ya’ni*

$$\sup_{\rho<r}\left\{\int\limits_{\partial L(a,\rho)} v(z)\left|dz+A(z)d\overline{z}\right|\right\}<+\infty.$$

8-teorema. *Faraz qilaylik,* $u(z)\in h_A\left(L\left(a,r\right)\right)$ *bo‘lsin. Agar* $\int\limits_{\partial L(a,\rho)}\left|u(z)\right|\left|dz+A(z)d\overline{z}\right|$ *tekis chegaralangan bo‘lsa, ya’ni* $\sup\limits_{\rho<r}\left\{\int\limits_{\partial L(a,\rho)}\left|u(z)\right|\left|dz+A(z)d\overline{z}\right|\right\}<+\infty$ *bo‘lsa, u holda* $u(z)$ *funksiyani ikkita musbat* $A(z)$-*garmonik funksiyalar ayirmasi* $u(z)=u_1(z)-u_2(z),\quad u_1(z)>0,\quad u_2(z)>0$ *ko‘rinishida ifodalanadi.*

9-teorema. *Agar* $f(z)\in N_A\left(L\left(a,r\right)\right)$ *bo‘lsa, u holda funksiyani ikkita chegaralangan funksiyalarning nisbati*

$$f(z)=\frac{f_1(z)}{f_2(z)},\quad f_1(z),\,f_2(z)\in O_A\left(L\left(a,r\right)\right),\left|f_1(z)\right|,\left|f_2(z)\right|\le C<\infty,\ \forall z\in L\left(a,r\right).$$

ko'rinishida ifodalash mumkin.

3-natija. *Agar* $f(z)\in N_A\left(L\left(a,r\right)\right)$ *bo'lsa, u holda funksiya* $\partial L\left(a,r\right)$ *chegaraning deyarli hamma yerida radial(burchakli) limitga ega bo'ladi.*

Dissertatsiyaning **"*A*(*z*)-analitik funksiyalar uchun Karleman formulasi"** nomli uchinchi bobida *A*(*z*)-garmonik va *A*(*z*)-subgarmonik funksiyalar yordamida *A*(*z*)-analitik funksiyalar uchun chegaraviy yagonalik teoremasi isbotlangan. Shuningdek, bu yerda $L\left(a,r\right)$ sohaga binoan chegaraviy $M\subset\partial L\left(a,r\right)$, $mes\left(M\right)>0$ to'plamning *A*(*z*)-garmonik o'lchovi bajarilishini mavjudligini hamda $H_A^1\left(L\left(a,r\right)\right)$ funksiyalar sinfi uchun Karleman formulasining analogini isbotlangan.

Kompleks o'zgaruvchili funksiyalarning chegaraviy xossalarini o'rganishda, uning chegaraviy qiymatlari bilan berilishida uning yagonalik xossasi muhim ahamiyatga ega. Dastlab bu xossani chegaralangan *A*(*z*)-analitik funksiya uchun qaraymiz.

10-teorema. *Faraz qilaylik,* $f(z)\in O_A\left(L\left(a,r\right)\right)$ *bo'lsin. Agar ushbu funksiya* $L\left(a,r\right)$ *lemniskatada chegaralangan bo'lsa, shuningdek, chegaraning biror musbat o'lchovli* $M\subset\partial L\left(a,r\right)$ *qismida radius bo'yicha qiymati nolga intilsa, u holda* $f(z)$ *aynan nolga teng bo'ladi.*

11-teorema. *Faraz qilaylik,* $f(z)\in H_A^1\left(L\left(a,r\right)\right)$ *bo'lsin. Agar musbat o'lchovli* $M\subset\partial L\left(a,r\right)$ *to'plamda funksiyaning chegaraviy qiymatlari* $\zeta\in M$ *da* $f^*\left(\zeta\right)=0$ *bo'lsa, u holda* $f(z)\equiv 0$ *bo'ladi.*

12-teorema. *Aytaylik,* $M\subset\partial L\left(a,r\right)$ *soha chegaradagi musbat o'lchovli qism to'plam bo'lsin. Agar* $\omega\left(z,M,L\left(a,r\right)\right)\in h_A\left(L\left(a,r\right)\right)$ *bo'lsa, u holda* M *to'plamning deyarli barcha* $\zeta\in M$ *nuqtalarida*

$$\omega^*\left(\zeta,M,L\left(a,r\right)\right)=\lim_{z\to\zeta,\,z\in\sphericalangle}\omega\left(z,M,L\left(a,r\right)\right)=-1$$

bo'ladi. Undan tashqari, $\partial L\left(a,r\right)\setminus M$ *to'plamning deyarli barcha* $\zeta\in\partial L\left(a,r\right)\setminus M$ *nuqtalarida*

$$\omega^*\left(\zeta,M,L\left(a,r\right)\right)=\lim_{z\to\zeta,\,z\in\sphericalangle}\omega^*\left(z,M,L\left(a,r\right)\right)=0$$

bo'ladi.

13-teorema. *Faraz qilaylik,* $M\subset\partial L\left(a,r\right)$ *musbat o'lchovli to'plam bo'lsin. Agar* $\omega\left(z,M,L\left(a,r\right)\right)\in h_A\left(L\left(a,r\right)\right)$ *bo'lsa, u holda deyarli* $\zeta^0\in M$ *nuqtalar uchun radial(burchakli) limitlar mavjud bo'ladi, ya'ni*

$$\lim_{z\to\zeta^0,\,z\in\sphericalangle_{\zeta^0}}\omega\left(z,M,L\left(a,r\right)\right)=\omega^*\left(\zeta^0,M,L\left(a,r\right)\right)=-1.$$

14-teorema. *Faraz qilaylik,* $u(z)\in sh_A\left(L\left(a,r\right)\right)$ *va* $\omega\left(z,M,L\left(a,r\right)\right)\in h_A\left(L\left(a,r\right)\right)$ *bo'lsin. Agar* $u(z)<0$ *va* $M\subset\partial L\left(a,r\right)$

to'plamning deyarli hamma yerida burchakli limit uchun $\overline{\lim\limits_{z\to\zeta,\, z\in \sphericalangle_\zeta}} u(z) \le -1,\ \zeta\in M$ *bo'lsa, u holda* $L(a,r)$ *lemniskataning hamma yerida* $u(z)\le \omega\big(z,M,L(a,r)\big)$, $z\in L(a,r)$ *tengsizlik bajariladi.*

15-teorema. *Faraz qilaylik,* $f(z)\in O_A\big(L(a,r)\big)$ *bo'lsin. Agar* $\forall z\in L(a,r)$ *larda* $\exists E>0,$ $|f(z)|\le E$ *va chegaraviy musbat o'lchovli* $M\subset \partial L(a,r)$ *to'plamning deyarli hamma yerida chegaraviy limit uchun* $\overline{\lim\limits_{z\to\zeta,\, z\in \sphericalangle_\zeta}} f(z)\le E_0,$ $\zeta\in M$, $E_0<E$ *tengsizlik o'rinli bo'lsa, u holda* $L(a,r)$ *lemniskataning hamma yerida* $|f(z)|\le E^{1+\omega(z,M,L(a,r))}E_0^{-\omega(z,M,L(a,r))}$, $z\in L(a,r)$ *tengsizlik bajariladi.*

16-teorema. *Faraz qilaylik,* $f(z)\in O_A\big(L(a,r)\big)$ *va* $\{f_j(z)\}\in O_A\big(L(a,r)\big)$ *funksiyalar ketma-ketligi berilgan bo'lsin. Agar chegaraviy qiymatlardagi* $f_j^*(\zeta)$, $\zeta\in M$ *funksiyalar ketma-ketliklar* M *ning deyarli hamma yerida yaqinlashsa, u holda* $f_j(z)$ *funksiyalar ketma-ketligi* $f(z)$ *funksiyaga* $L(a,r)$ *lemniskataning ichki sohasida tekis yaqinlashadi, ya'ni* $\{f_j(z)\}$ *funksiyalar ketma-ketligi ixtiyoriy* $K\subset\subset L(a,r)$ *kompaktda tekis yaqinlashadi.*

Aytaylik, $D\subset\mathbb{C}-$qavariq soha, $L(a,r)\subset\subset D-$biror lemniskata hamda chegarada biror $M\subset\partial L(a,r)$ musbat o'lchovli $M\subset\partial L(a,r)$ to'plam berilgan bo'lsin. $f(z)\in H_A^1\big(L(a,r)\big)$ funksiyalar uchun $\partial L(a,r)$ ning ba'zi chegaraviy nuqtalarida, (7) H_A^1 Xardi sinfi uchun Koshining integral formulasida faqat $M\subset\partial L(a,r)$ bo'yicha $L(a,r)$ da tiklash masalasini qo'yamiz. Goluzin-Krilov usulini qo'llab, *"so'ndiruvchi"* funksiya quramiz, u (7) da $\partial L(a,r)\setminus M$ bo'yicha integrallashni yo'qotadi. Buning uchun quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi $\varphi(z)\in H_A^\infty\big(L(a,r)\big)$ yordamchi funksiya quramiz:

1. $\left|\varphi^*(\zeta)\right|=1,$ $\partial L(a,r)\setminus M$ ning deyarli hamma yerida $\left|\varphi^*(\zeta)\right|=1,$ bu yerda φ^*-funksiyaning chegaraviy qiymati;
2. $\forall z\in L(a,r)$ uchun $|\varphi(z)|>1.$

Buning uchun chegaraviy $M\subset\partial L(a,r)$ to'plam $A(z)$-garmonik o'lchovini quramiz. 13-teoremadan kelib chiqqan holda $\omega^*\big(\zeta,M,L(a,r)\big)\in h_A\big(L(a,r)\big)$, $-1\le\omega^*\big(\zeta,M,L(a,r)\big)<0,$ va M to'plamning deyarli hamma yerida

$$\omega^*\big(\zeta,M,L(a,r)\big)=\lim_{z\to\zeta,\, z\in\sphericalangle}\omega^*\big(z,M,L(a,r)\big)=-1,$$

$\partial L(a,r)\setminus M$ to'plamning deyarli hamma yerida esa

$$\omega^*\big(\zeta,M,L(a,r)\big)=\lim_{z\to\zeta,\, z\in\sphericalangle}\omega^*\big(z,M,L(a,r)\big)=0$$

bo'ladi.

$L(a,r) \subset\subset D-$bir bog‘lamli bo‘lsa, u holda $A(z)$-garmonik $v(z)$ funksiyaga qo‘shma $\omega(z,M,L(a,r))=u(z)$ funksiya mavjud bo‘ladi, shunday qilib $u(z)+iv(z)=w(z)\in O_A(L(a,r))$ bo‘ladi. Endi $\varphi(z)=\exp(-w(z))$ funksiyani qaraymiz. Ushbu funksiya yuqorida 1 va 2 shartlarni qanoatlantiradi: $\varphi(z)\in O_A(L(a,r))$, ya’ni agar $-w(z)\in O_A(L(a,r))$, u holda $\varphi(z)=e^{-w(z)}\in O_A(L(a,r))$. Haqiqattan ham, osongina ko‘rinadiki, $-w(z)$ funksiya (1) Beltrami tenglamasini qanoatlantiradi:

$$\overline{D}_A\varphi(z)=\frac{\partial\varphi}{\partial\bar{z}}-A(z)\frac{\partial\varphi}{\partial z}=\frac{\partial e^{w}}{\partial\bar{z}}-A(z)\frac{\partial e^{-w}}{\partial z}=e^{-w}\frac{\partial(-w)}{\partial\bar{z}}-A(z)e^{-w}\frac{\partial(-w)}{\partial z}=$$

$$=-e^{-w}\left(\frac{\partial w}{\partial\bar{z}}-A(z)\frac{\partial w}{\partial z}\right)=0,$$

shuningdek $e^{-w(z)}$ funksiya (1) ni qanoatlantiradi va $L(a,r)$ ning hamma yerida $|\varphi(z)|=e^{-u(z)}\le e$ bo‘ladi, ya’ni

1. $\varphi(z)\in H_A^{\infty}(L(a,r))$, $|\varphi^*(\zeta)|=e^{-u^*(\zeta)}=e^0=1$, $\partial L(a,r)\setminus M$ ning deyarli hamma yerida;
2. $|\varphi(z)|=e^{-u(z)}>1$, $\forall z\in L(a,r)$ larda.

Bu funksiya M to‘plam bog‘liq *so‘ndiruvchi* funksiyani hosil qiladi.

17-teorema. *Agar* $f\in H_A^1(L(a,r))$ *va* $M\subset\partial L(a,r)-$*musbat o‘lchovli to‘plam bo‘lsa, u holda ixtiyoriy* $z\in L(a,r)$ *nuqta uchun*

$$f(z)=\lim_{m\to\infty}\int_M f^*(\zeta)\left[\frac{\varphi(\zeta)}{\varphi(z)}\right]^m K(\zeta,z)\left(d\zeta+A(\zeta)d\bar{\zeta}\right) \tag{8}$$

formula o‘rinli, bu yerda (8) dagi yaqinlashish $L(a,r)$ *dagi kompaktda tekis yaqinlashadi.*

XULOSA

Ushbu dissertatsiyada $A(z)$-analitik funksiyalar uchun Xardi sinfi ba’zi chegaraviy xossalari ko‘rilgan. $A(z)$-analitik funksiyalar uchun Xardi sinfidan olingan funksiya uchun ba’zi muhim teoremalar isbotlangan. Undan tashqari, $A(z)$-analitik funksiyalar uchun Nevanlinna sinfi kiritilgan va asosiy natijalar quyidagilardan iborat:

$A(z)$-analitik va $A(z)$-garmonik funksiyalar uchun Xardi sinfi kiritilgan hamda ushbu sinflarning funksional xossalari isbotlangan;

Puasson fomulasidan foydalanib, $A(z)$-garmonik funksiyalar uchun chegaraviy funksiya qurilgan;

Lemniskata chegarasining deyarli hamma yerida $A(z)$-analitik funksiyalar uchun Xardi sinfidan olingan funksiya uchun burchakli limitning mavjudligi isbotlangan;

$A(z)$-analitik funksiyalar uchun Nevanlinna-Ostrovskiy sinfi kiritilgan. Blyashke ko‘paytmalarida ushbu funksiyalar sinfi xossalari berilgan;

$A(z)$-analitik funksiyalar uchun Nevanlinna-Ostrovskiy sinfidan olingan funksiyani har doim ikkita chegaralangan funksiya munosabati ko‘rinishida ifodalanishi isbotlangan;

$A(z)$-analitik funksiyalar uchun Nevanlinna-Ostrovskiy sinfidan olingan funksiyani uchun chegaraning hamma yerida burchakli limitning mavjudligi isbotlangan;

$A(z)$-analitik funksiyalar uchun chegaraviy yagonalik teoremalari isbotlangan;

lemniskata chegarasining qismining deyarli hamma nuqtalari uchun $A(z)$-garmonik o‘lchov mavjudligi ko‘rsatilgan;

$A(z)$-analitik funksiyalar uchun so‘ndiruvchi funksiya qurilgan;

so‘ndiruvchi funksiya tadbiq qilinib, $A(z)$-analitik funksiyalar uchun Xardi sinfidan olingan funksiya uchun Karleman formulasi isbotlangan.

Umuman olganda olingan natijalar dissertatsiya tadqiqotining maqsadlariga muvofiq hisoblanadi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.06.2020.FM.70.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРШИНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ХУСЕНОВ БЕХЗОД ЭРКИН УГЛИ

ФОРМУЛА КАРЛЕМАНА ДЛЯ $A(z)$-АНАЛИТИЧЕСКИХ ФУНКЦИЙ

01.01.01 – Математический анализ

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ

Карши – 2024

Тема диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) по физико–математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за № B2021.1.PhD/FM255.

Диссертация выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (http://ik-fizmat.nuu.uz/) и на Информационно образовательном портале «Ziyonet» (http://www.ziyonet.uz/).

Научный руководитель:	**Жабборов Насридин Мирзоодилович** доктор физико-математических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Яхшибаев Махмадиёр Умирович** доктор физико-математических наук, профессор
	Бозоров Журабек Тугаймуратович доктор философи по физико-математическом наукам
Ведущая организация:	Нукусский государственный педагогический институт

Защита диссертации состоится «24» 05 2024 года в 11^00 на заседании Научного совета PhD.03/30.06.2020.FM.70.04 при Каршинском государственном университете. (Адрес: 100174, г. Карши, ул. Кучабаг, 17. Тел.: (+998 75) 225 34 13, факс: (+998 75) 221 00 56, e-mail: qarshidu@umail.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каршинского государственного университета Узбекистана (зарегистрирована за №216). (Адрес: 180103, г. Карши, ул. Кучабаг, 17. Тел.: (+998 75) 225 34 13, факс: (+998 75) 221 00 56).

Автореферат диссертации разослан «11» 05 2024 года.

(протокол рассылки №1 от «11» 05 2024 года).

Б.А.Шаимкулов
Председатель Научного совета
по присуждению научных
степеней, д.ф.-м.н., профессор,

Ш.Д.Нодиров
Ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.ф.ф.-м.н.(PhD), доцент

А.А.Имомов
Председатель Научного семинара
при Научном совете по
присуждению ученых степеней,
д.ф.-м.н.(DSc.), доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Многие научные и практические исследования в комплексном анализе, проводимые на мировом уровне, сводятся к изучению граничных свойств аналитических функций и интегральных представлений. Теория граничных свойств аналитических функций тесно связана с различными разделами математического анализа и вообще математики. Через граничные задачи эта теория тесно взаимодействует с различными областями применения математики. Интегральные представления являются важным инструментом при построении теории граничных свойств аналитических функций. Они служат основой исследований в задачах зависимости значений голоморфных функций внутри области от ее значений на границе или на части границы области и в задачах голоморфного продолжения. Поэтому исследование граничных свойств и интегральных представлений аналитических функций и их применений является одним из актуальных направлений. Первым к практическим задачам в этом направлении обратились ученые-физики В.А. Фок и Ф.М. Куни, которые применили их к дисперсионным средам в теоретической ядерной физике. Также результаты этого направления используются для нахождения некоторых формул давления в многофазных средах в механике.

В мире вырос интерес к задачам которые сводятся к изучению и применению теории граничных свойств и интегральных представлений $A(z)$-аналитических функций. Это связано с применением методов этой теории к задачам квазиконформных отображений, задачам томографии, комплексной теории динамических систем, математической физики и других разделов науки. При этом нахождение новых граничных свойств и аналогов классических теорем, обобщение существующих классов, обобщений интегральных представлений, исследование их применений в соответствующих областях считаются целевыми научными исследованиями. Так, ученые Института математики Сибирского отделения РАН Э.В.Арбузова, А.А.Бухгейм и С.Г.Казанцев, в своих научных работах дали решение задачи томографии с помощью A-аналитических функций (случае const). Также Х.Х. Имомназаров и Н.М.Жабборов применили A-аналитические функции к задачам нефти и газа.

